

## QORAQALPOQ QABILALARING ZARAFSHON VOHASIGA KIRIB KELISH TARIXIGA OID

**Abdig‘apparov Orif**  
JDPU o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Qoraqalpoqlar O‘rta Osiyodagi mahalliy millatlardan hisoblanadi qoraqalpoq qabilalari qadim zamonlardan Orol dengizining Janubiy-sharqiy hududi, Amudaryo va Sirdaryo etaklarida yashab kelganlar va bu tabarruk to‘proqni o‘zlarining vatani deb hisoblaganlar. Asosan, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi qoraqalpoqlar bahor kelishi bilan shimoliy mintaqalarga tomon ko‘chib, Kaspiyni shimoli, Ural, Emba va Volga daryosigacha ko‘chib borgan.

**Kalit so‘zlar.** Qoraqalpoqlar, Zarafshon, O‘rta Osiyo, Qirg‘izlar, Ural, Emba va Volga daryosi, Movaraunnahr Chimkent, Toshkent va Namangan, Afg‘onistonda yashaydi.

## ON THE HISTORY OF THE MIGRATION OF KARAKALPAK TRIBES INTO THE ZARAFSHAN VALLEY

**Annotation:** The Karakalpaks are an indigenous people of Central Asia. The Karakalpak tribes have lived in the southeastern region of the Aral Sea, the foothills of the Amu Darya and the Syrdarya rivers since ancient times, and considered this blessed land their homeland. The Karakalpaks, who were mainly engaged in cattle breeding, migrated to the northern regions with the arrival of spring, moving north of the Caspian, to the Urals, Emba and Volga rivers.

**Keywords:** Karakalpak, Zaravshan, Central Asia, Kyrgyz, Ural, Emba and Volga, Movaraunnakhr and Shymkent, Tashkent and Namangane, Afghanistan.

## О ВХОЖДЕНИИ КАРАКАЛПАКСКИХ ПЛЕМЁН В ЗАРАФШАНСКУЮ ДОЛИНУ

**Аннотация:** Каракалпаки коренной народ Центральной Азии. Племена каракалпаков с древних времен жили в юго-восточном регионе Аральского моря, у подножия рек Амударья и Сырдарья, и считали эту благословенную землю своей родиной. Каракалпаки, занимавшиеся в основном скотоводством, с приходом весны мигрировали в северные регионы, продвигаясь к северу от Каспийского моря, к рекам Урал, Эмба и Волга.

**Ключевые слова:** Каракалпаки, Заравшан, Средняя Азия, Киргизы, Урал, Эмба и Волга, Моварауннахр обитают в Шымкенте, Ташкенте и Намангане, Афганистан.

Qoraqalpoq xalqlarining Zarafshon hududiga kirib kelishi omillari, vohada joylashuvi hamda o‘ziga xos va umumiy madaniyati va urf-odatlarini o‘rganish

dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, Zarafshon xududidagi qoraqalpoq xalqlarining o'zbek qabilalari bilan madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarini o'rganish faning oldida turgan dolzarb ilmiy masalalari sirasiga kiradi.

Zarafshon vohasi asrlar davomida xo'jalik – madaniy va turmush tarzi bir-biriga yaqin bo'lgan ko'plab, elat va qabilalar (asosan, o'zbek, qozoq, tojik, turkman, qoraqalpoq va boshqalar)ning uzoq tarixiy davr mobaynida faol etnomadaniy aloqalarga kirishib yashagan mintqa hisoblanadi. Turli elat vakillarining bahamjihat yashashi, madaniy aloqalari, kuchli qorishuv jarayonlari vohaga xos madaniy birlikning shakllanishida muhim ro'l o'ynagan. Tarixan o'ziga xos shakllangan va barcha qadimiy yashash an'alarini saqlab qolgan Zarafshon vohasi aholisining joylashuvi va etnik hayotiga o'rta asrlarda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar katta ta'sir ko'rsatgan. Ular orasida vohaga qoraqalpoqlarning kirib kelishi ham ta'sir ko'rsatgan.

Ma'lumki, qoraqalpoqlar O'rta Osiyodagi mahalliy millatlardan hisoblanadi qoraqalpoq qabilalari qadim zamonlardan Orol dengizining Janubiy-sharqiy hududi, Amudaryo va Sirdaryo etaklarida yashab kelganlar va bu tabarruk to'proqni o'zlarining vatani deb hisoblaganlar. Asosan, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qoraqalpoqlar bahor kelishi bilan shimoliy mintaqalarga tomon ko'chib, Kaspiyni shimoli, Ural, Emba va Volga daryosigacha ko'chib borgan. Ma'lum qismi o'sha hududlarda qolib boshqalari o'zlarining asl yurtlariga qaytib-ko'chib yashaganlar[1]. Shuning uchun XVI-XIX asrlarda Sirdaryo bo'ylaridan Ural va Volga daryosigacha bo'lgan hududlarning siyosiy hayotida qoraqalpoqlarning muhim rol o'ynaganligi tarixiy manbalarda eslatiladi.

Taxminlarga ko'ra, XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida qoraqalpoqlar mayda urug'lar bo'lib, Farg'ona vodiysiga kelib joylashgan. Shu davrga oid «Ubaydullanoma» asarida, qozoqlar, qoraqalpoqlar va Andijon, Xo'jand, Toshkent, Sayram va Turkiston hatto Ulitov bilan Kichiktovning butun xalqi G'oziy biy yuzning bolasi Muxammad-Raxim biy Yuzning qo'l ostida bo'ladi. Bundan Andijon va Xo'jand aholisi tarkibida qoraqalpoqlar ham bo'lganligi anglanadi. XVIII asr boshida qoraqalpoqlar turli tomondagi hududiy guruhlariga bo'linib boshlagan. Ularning ba'zilari Sirdaryo quyisida yashab qozoq xonlarni qo'l ostida bo'lgan.

Boshqa guruhleri esa janubga tomon ko'chib Buxoro xonligi hududlariga kelgan. Ana shu davrda qoraqalpoqlarning uchinchi bir janubiy-sharqiy guruhi Farg'ona vodiysiga o'rasha boshlagan bo'lsa kerak. Qoraqalpoqlarning ushbu guruhleri bilan birgalikda ularning g'arbiy tarmoqlari Yoyiq (Ural), Itil (Volga ) va Emba daryolari atrofida yashagan. Qoraqalpoqlarning bu guruhleri no'g'oylar bilan bo'lgan o'zlarning yaqin aloqalari va ittifoqchiliklari sababli, Sibir tomonlarga doimo yurishlar uyushtirib turgan. XVII asrning 70-yillarida qoraqalpoqlar ruslarning Zakamsk o'lkasini bosib olishiga qarshi chiqib, boshqirtlar bilan birga Ural va Sibir guberniyalariga hujumlar uyushtiradi. Qoraqalpoqlar bu paytda ancha katta hududlarni egallab, bu davrdagi voqealar qoraqalpoqlarning ancha keyingi vaqtlarda ham ko'chib-qo'nib yashashlarga bog'liq bo'lgan.

XVIII asrning birinchi yarmi qoraqalpoqlarning bundan keyingi taqdiriga katta ta'sir qilgan voqealar bo'lgan. Ulardan birinchisi, 1723 yilda Sirdaryo bo'yi va O'rta Osiyo hududlariga jung'orlar bosqini bo'ldi. Jung'orlarning bu bosqini qozoqlar tarixida "Ulug' buzg'unchilik yillari" nomi bilan kirib, qozoq va qoraqalpolarga juda katta talofat keltirgan. Bosqinlardan Kichik juz qozoqlari Xiva xonligi hududlari, Yoyiq va Emba atroflariga, O'rta Juz qozoqlari Samarqand va Buxoro atroflarig qochadi. Qoraqalpoqlar bu nom bilan XVIII asrga oid tarixiy manbalarda ataladigan bo'lgan. A.I.Levshinning "katta buzg'unchilik yillarida", "Ulug' O'rdaning qoldiqlari O'rta O'rdaning kichik bo'limi bilan Xo'jantga ko'chgan" degan fikrlari ahamiyatlidir[3]. Xo'jant, Farg'ona vodiysining darvozasi edi. Shuning uchun, jung'orlar bosqinidan oldin Ulug' juz hududi (Toshkent atroflari) da yashagan qoraqalpoqlarning bir qismi o'sha joy (Sirdaryo bo'yi, Toshkent atroflari)dan bu yerga kelib qolgan bo'lishi mumkin. Farg'ona qoraqalpoqlaridan yozib olingan bir o'lada "Qorotovning tagida qoldim yakka, qalmiqning o'qi tegdi qoq yurakka" deb boshlanuvchi qo'shiqda qoraqalpoqlarning Sirdaryo o'rta oqimlarida yashab, shunga yaqin Qorotov yaqinida jung'orlarga qarshi jangbo'lganligi ma'lum bo'ladi. Demak, Sirdaryoning o'rta oqimlari, Qorotov yonbag'irlari va Turkistonga tutash adirliklarda XVII-XVIII asrlarda «jokargy qoraqalpoqlarning asosiy qismi yashagan.

Shunday qilib, jung'orlar bosqinidan so'ng «jokargy» qoraqalpoqlarning bir qancha ozchilik guruhlari qozoqlar bilan birga Zarafshon vohasi va Farg'ona vodiysiga kelib yashay boshlagan. Biroq, «jokargy» qoraqalpoqlarning asosiy qismi Sirdaryoning o'rta oqimlari, Turkiston va Toshkent atroflari va undan janubdagi hududlarda yashayveradi. Bu haqda P. Richkov shunday deb yozadi. Bu voqea natijasida bu xalq ham xon tarfidan va qirgiz-qaysaklar tomonidan talonga uchrab, har tomonlama ezilib qashshoqlika uchragan. Shundan keyin, Orenborga xech kim bormaydigan bo'lgan. Manbalarga ko'ra bu yerlarni qirg'izlar egallab olgan bo'lgan. Qirg'izlar oldin bu yerga kamdan kam kelib yurgan bo'lsa, hozir ko'p keladigan bo'lgan. Qirg'izlardan qo'rqqan qoraqalpoqlar jung'orlarga qarashli joylarga ko'chib o'tgan va «jokargy» qoraqalpolarga yaqinglashib borgan. Qoraqalpoqlarning boshqa kichikroq guruhlari Jonidaryo bilan Orol dengizining janubiy sharqiy rayonlariga qarab ko'chgan. Bu paytda Ulug' juzlar jung'orlar qaramligida bo'lgan. O'rta juzlar esa 1731-yili rus fuqoroligiga o'tgan bo'lishiga qaramay, ikki yoqlama siyosat yurgizib, jung'orlarga ham qaram bo'lgan[4]. Bu paytda «jokargy» qoraqalpoqlar ham jung'orlarga qaram bo'lgan. Biroq, jung'arlar 1750 yili Turkiston shahrini qoraqalpoq boyligiga bergan. Biroq, qoraqalpoqlar bu shaharda ko'p tura olmagan. 1762-yilda Kichik juz va O'rta juz qozoqlarining bir qismi vaqtincha bo'sh qolgan Sirdaryo bo'ylaridagi qoraqalpoqlarning yerlariga ko'chib kelib joylashgan[5].

Shundan keyin, qozoqlarning Ulug' va O'rta juzlarning xonlari katta hududda guruhlarga bo'linib, kelib, «jokargy» qoraqalpoqlar ustiga yurishlar uyushtiradi. Mollarni tortib olib, o'zlarini asirlikka olgan yoki qirib yuboradi[6]. Jumladan, XVIII asrning 40- yillarida qoraqalpoqlarni O'rta juz sultoni Baroqning bo'ysundirib, «Jokargy» qoraqalpoqlarning Baroq sultonga bo'ysnishi shu bilan birgalikda o'rta

va ulug' juzlarning Farg'ona vodiisini egallash uchun yurishlar uyushtirgan. Jumladan, Baroq sultonning bolasi Shigay xon 1748 yil Namangan atroflarni egallagan[7]. Manbalarda qoraqalpoqlarning Shigay xonga bo'ysunganligi haqida ma'lumotlar bor. Shigayxon Chimkent, Toshkent va Namangan atrofidagi qoraqalpoqlarni bo'ysundirgan. Shigay bilan Namanganga faqat qozoqlar emas, unga bo'ysungan qoraqalpoqlar kelgan bo'lishi mumkin.

XVIII asr ikkinchi yarmida qoraqalpoqlarning Sirdaryo bo'ylab, O'rta Osiyoning dehqonchilik hududlariga kirib kelishi kuchaygan. Bu ko'chishlarning sababi, qozoqlar bilan bo'lgan so'ngi nizolar bo'lgan. «Jokargy» qoraqalpoqlarning ayrim guruhleri Buxoro va Qo'qon xonlari tomonidan ularning kelib joylashishiga e'tiroz bildirilmagan. Buxorolik tarixchi Muxammad Vafo o'z asarida Buxoro hukmdori Raximxon qoraqalpoqlarni mamlaktning ulkan o'zlashtirmagan hududlariga joylashtirish foydadan xoli bo'lmasligini hisobga olib, ularga Buxoro fuqoroligini qabul qilsa, mamlakat hududida yashashi mumkinligi ta'kidlagan. Bunga qoraqalpoq qabila yo'l boshchilari rozilik bergach, ulardan olti ming oila amir yuborgan yo'l boshchilar boshchiligida Zarafshon daryosi bo'ylab, Koningil huududiga joylashtirilgan[8].

Sirdaryo bo'yi yaylovlaridan mahrum bo'lgan qoraqalpoqlar bir guruh bo'lib Volga bo'yiga ko'chib o'tib, o'r nashib qolgan. Ammo shuni aytish kerakki, qalmoqlar qozoqlar va qoraqalpoqlardan ancha oldin Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan va Rossiya himoyasida edi. Shuning uchun qoraqalpoqlar va qozoqlar kichik guruh tuzgan taqdirda ham qalmoq yerlarini bosib olishga kuchlari yetmagan.

Biroq o'tmishda qozoqlar va qoraqalpoqlar bilan ko'p jang qilgan qalmoqlar Volga daryosining chap qirg'og'idan o'ng qirg'oqqa ko'chishga majbur bo'ladilar. O'sha davrda Rossiya imperiyasi tez-tez guruhlar tuzgan qoraqalpoqlarning boshqirdlar bilan qo'shib, kuchayib ketishidan juda qo'rqardi. XVII-asrning 30-yillaridan keyin qozoqlar, Kichik O'rda Rossiya imperiyasining bosh kotibi ko'rsatmasiga ko'ra har ikki qoraqalpoqni ham Rossiya tasarrufiga o'tkazdi. I.Kirillov ismli kishi qoraqalpoqlar bilan Rossiya imperiyasiga qo'shilish va imperiya xavfsizligini ta'minlash uchun muzokaralar olib bordi.

Ammo bu siyosat qoraqalpoqlarning taqdiri avvalgidan ham battar edi. Qoraqalpoqlar Rossiya tasarrufiga o'tganligi sababli, Kiji Juz qozoqlarining xoni Abulxayrxon qoraqalpoqlarga butunlay dushman bo'lib, bir necha marta qoraqalpoqlarga bosqinlar uyushtirib, chorvalarini olib, odamlarini talagan va o'lja qilib, aholini boshqa hududlarga ko'chirgan. 1747-1748 yillari Abulxayrxon qoraqalpoqlar ustiga chopovul yasagan: ularning bir qismini Talas daryosining boyiga ko'chirib keltirib, dehqonchilik bilan shug'ullanishga majbur qilgan. Abulxayrxonning qoraqalpoqlarga nisbatan shafqatsizligi shu darajada bo'lganki, u qoraqalpoqlarni hech qayerga jo'natmagan, balki ularni o'z qo'l ostida ushlab turish uchun qoraqalpoq xonlaridan birining xotinlari va bolalarini garovga olgan, Rossiya imperiyasi esa qoraqalpoqlardan soliq yig'ish uchun kelgan[9].

Shu tariqa qoraqalpoqlarning bir qismi qozoqlar tasarrufida qoldi, hozir Ural daryosi atroflarida yashovchi qoraqalpoqlar o'sha qoraqalpoqlardan hisoblanadi.

Shundan keyin qoraqalpoqlarning boshqa hududda ko‘chib yurgan urug‘doshlari ham Buxoro amirligi hududlariga kirib kela boshlagan. A.D. Grebenkinni yozishicha, «Qoraqalpoqlar Zarafshon daryosi atroflari bo‘ylab oz-ozdan mayda guruhlariga bo‘linib, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XIX asrning 40-yillarigacha ko‘chib kelib joylashgan». Oldingi paragrafda ta’kidlaganimizdek ularning boshqa urug‘lari (jumladan, muytenlar) bundan ancha oldin ham kelib joylashgan. A.D. Grebenkin shu vaqtlar qoraqalpolarga yaqin bo‘lgan qabilalar mitanlar bo‘lgan deb yozadi. Ularning qarindoshlaridan ko‘pchiligi janubga ketib, Amudaryoni kesib o‘tib, Balxin yeri deb atalgan o‘lkaga brogan. Hozirgi Afg‘onistonda yashayotgan qoraqalpoqlar ularning avlodlari hisoblandi[2].

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoqlarining doimiy turdagi uy-joylarga o‘tishi bir necha o‘n yillarni o‘z ichiga olib, evolyutsion tarzda yuz bergan. Bu holat eng avvalo, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati hamda tabiiy shart-sharoit omillari bilan bog‘liq. Bundan ko‘rinadiki, qoraqalpoqlarning doimiy uy-joylari o‘troq o‘zbeklar va boshqa xalqlar ta’sirida shakllangan bo‘lib, o‘troq aholi manzilgohlari bilan bir xillashuv, ya’ni unifikatsiyalashuv yuz bera boshlagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Хақимниязов Ж.Х., Торениязов Ж.Е. XVII-XIX асрларда қорақалпоқларнинг яшаган шаҳарлари бўйича тарихий манбалар // Хоразм маъмун академияси, – Урганч, 2021. 4 сон. – Б. 19.
- 2.Толстова Л.С. Жокаргы каракалпаклар... – Б. 53.
- 3.Левшин А.И. Описание киргиз-казачьих или киргиз-кайсацких степей, ч. II., СПб., 1832, 69-70 бетлер
- 4.Рычков П. П. Топография Оренбургской губернии, 123-бет.2Рычков П.П. Топография Оренбургской губернии, 173-174-бетлер.3 Витевский В.Н., Неплюев И.Н. Оренбургский край, вып. IV.Казань., 1895, 791-бет
- 5.Вельяминов-Зернов В. В. Исторические известия о киргиз-кайсаках и сношениях России со Средней Азией. Уфа, 1853, 201-бет.
- 6.Потанин Г. П. Материалы по истории Сибири. М., 1867, 39-бет
- 7.Иванов П.П. Казахи и Кокандское ханство.//Записки Института востоковедения, VII, М.-Л., 1939, 97-бет; Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. Казань, 1886, 63-бет
- 8.Протоколы заседаний и сообщений Туркестанского кружка любителей археологии, год XX, вып. II, 115-бет.
- 9.Нажимов Т. Ўзбекистондаги қарақалпоқлар ҳақида // Амударё. 2-4 сон. Нукус. 1994.– Б. 63.